

MUSTAQILLIK YILLARIDA TA`LIMI TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR,
MAKTABGACHA TA`LIM TIZIMI FAOLIYATI RIVOJI

Xolboyeva Gulzira Rustamjonovna

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistonda bo'lib o'tgan ta'lim sohasidagi islohotlar qisqacha bayon etilgan. Jumladan, xalq ta'limi tizimi va maktabgacha ta'lim sohasidagi o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, xalq maorifi, maktab ta'limi, bog'cha, islohotlar, farmon, qaror, konferensiya, darslik, yosh avlod.*

Umumiy o'rta ta'lim 1-11 sinflarni o'z ichiga oladi. O'rta maxsus ta'lim akademik litsiyalarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi. Professional ta'lim boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim darajalariga ajratiladi. Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida 9-sinf bitiruvchilari negizida kunduzgi ta'lim shaklida 2 yillik integratsiyalashgan asosida bepul amalga oshiriladi. O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida davomiyligi 2 yilga-cha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi. Orta maxsus professional ta'lim texnikumlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov shartnoma asosida davomiyligi kamida 2 yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi. Qonunga ko'ra davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki hukumat qarorlari bilan tashkil etiladi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inespetsiyasi tomonidan beriladi. Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sisчилari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi. Eng samarali investitsiya bu ta'limga qilingan investitsiyadir. Chunki jamiyat taraqqiyotini, uning ertangi kunini yituk malakali kadrlar belgilab beradi. Ta'lim tizimini takomillashtirish, ularning bilimni oshirish, sifat darajasini ko'tarishdir.

Shu bois Prezident "Jamiyatda o'qituvchi kasbi eng nufuzli va obro'li kasb bo'lishi lozim" deya uqtirib, mamlakatimizda 2021-yilda o'qituvchi va pedagoglarga ustama haq to'lash tizimi yo'lga qo'yilishini ta'kidladi. Bu tashabbus yaqin to'rt yildagi o'qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy nufuzi va mavqei oshirish borasidagi amaliy faoliyat va harakatlarning izchil davomi deydigan o'rindir.

Shu kunlarda buyuk tarixga ega xalqimiz jonajon Vatanimiz istiqlolining o'ttiz yilligini nishonlamoqda. Bu yilgi istiqlool tantanalarining Yangi O'zbekiston bog'ida nishonlanishining ham o'ziga xos ramziy ma'nosi bor. O'ttiz yilligimizga munosib tuhfa, taraqqiyotning yangi bosqichiga ishoradir. 31-avgust kuni Toshkent viloyatining Qibray tumanida barpo etilgan mazkur bog'da Prezidentimizning bayram tabrigi barcha yurtdoshlarimiz qatori Namangan muhandislik-qurilishi institutining ko'p ming kishilik jamoasini ham to'lqinlantirib yubordi.

2017-yili yurtimizda 5 ming 211 ta bog'cha faoliyat yuritgan bo'lsa, joriy yilda bu raqam – tasavvur qiling – 19 ming 316 taga yetdi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari hamda oilaviy bog'chalarning joriy etilishi, bir qator imtiyozlar berilishi tufayli 13 mingdan ziyod nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Ushbu maqsadli islohotlar natijasida maktabgacha ta'limga qamrov darajasini 62 foizga, 6 yoshdagi bolalar o'rtasida esa 77 foizga yetkazishga erishildi.

Yangi turdagi ta'lim maskanlari, xususan, Prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashgan maktablar faoliyati yo'lga qo'yildi. Birgina 2020-yilni oladigan bo'lsak, yurtimizda matematika fani bo'yicha 56 ta, kimyo-biologiya fani bo'yicha 28 ta, informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha 14 ta ana shunday maktablar tashkil etildi.

Bu islohotlar albatta o'zining ijobiy natijasini bermoqda. Buni 2017 — 2020-yillarda o'quvchilarimiz nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida 30 ta medalni qo'lga kiritgani misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Yoshlarni talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatish uchun o'tgan o'quv yilida mamlakatda 339 ta kasb-hunar maktabi, 194 ta kollej va 195 ta texnikum faoliyati yo'lga qo'yildi.

Oliy ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar yuz berayotganligini quyidagi ko'rsatkichlar tasdiqlaydi: yurtimizda so'nggi 5 yilda 64 ta yangi oliy ta'lim muassasasi tashkil etilib, ularning soni 141 taga yetkazildi. Qabul kvotasi 3 barobar oshirildi. Endilikda bitiruvchi yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2016-yilgi 9 foizdan 28 foizga yetkazildi. Yaqin kelgusida ushbu ko'rsatkichni 50-60 foizga yetkazish mo'ljallanmoqda. Demak, ta'lim sifatini oshirish bizning maqsadimiz va sharaflari vazifamiz bo'lib qoladi.

Davlatimiz rahbari o'zining tabrik nutqida “Markaziy Osiyo ruhi” degan iboraga to'xtalib o'tdi. Xalqaro maydonda mintaqa nomidan yangi tashabbuslar ilgari surila boshlanganligi, ular jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilayotganligi buning sababidir. Bunda, albatta, O'zbekistonning ham munosib o'rni bor.

O'tgan 30 yil ichida davlatimiz va xalqimizning o'zaro ishonchi, hamjihatligi rivojlanishimizning asosi bo'lib xizmat qildi. Bu yilgi mustaqillik bayrami “Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!” shiori ostida nishonlandi. Mazkur shior jamiyatning barcha qatlamini birlashtirish vazifasini bajarmoqda.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yilligi arafasida bir qator yurtdoshlarimiz davlatimizning yuksak mukofotlari, orden va medallari bilan taqdirlandilar. Institutimizning jamoasi orasidan ham ilm-fan ravnaqi va ta'lim sohasidagi islohotlarga mehnatlari e'tirof etilib, bir guruh professor-o'qituvchilarimiz davlatimizning davlat mukofotlari, medallari bilan taqdirlandilar. Xususan, Namangan muhandislik-qurilish institutining transport logistikasi va xizmatlar sohasi kafedrasida professori Bayboboyev Nabijon G'ulomovich “Do'stlik” ordeni bilan, institut yetakchi professor-o'qituvchilaridan G'ulomqodir Dadamirzayev, G'ofurjon G'ulomov, Murodilla Olimov, Ahmadjon To'xtaboyev, Bahridin Mahmudov, Vohidjon Turdaliyev, Anvarjon Isomiddinov, Azizbek Abduvaliyev, Otabek Jalolov “O'zbekiston Respublikasi

mustaqilligining o'ttiz yilligi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Bu esa qalbimizni cheksiz faxr, iftixor tuyg'usiga to'ldirdi.

Bugun institut jamoasi "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!" shiori ostida yangi o'quv yili va mustaqillik darslarini boshlab yubordi. Prezidentimizning bayram tabrigida ilgari surilgan fikrlar, o'rta qo'yilgan g'oya va vazifalar esa institut jamoasini yangi marralar sari yo'naltiradi, deb o'ylaymiz.

Imkoniyatdan foydalanib institut jamoasi nomidan barcha vatandoshlarimizni mustaqillik bayrami bilan yana bir bor muborakbod etaman. Ezgu maqsadlarni amalga oshirishda kuch-quvvat tilayman!

Ilmiy kuzatish va tadqiqotlar natijasida inson o'z hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning yetmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi aniqlangan. Darhaqiqat, bu davrda inson bolasi dunyoni anglaydi, o'z ona tilini o'zlashtiradi, ota-ona, oila, mahalla, Vatanga mehri uyg'onadi, umr davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi. Bunda, eng avvalo, oila asosiy rol o'ynasa, maktabgacha ta'lim tashkilotining hissasi ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamlakatimizda aynan maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagiga, ta'bir joiz bo'lsa, uning debochasiga aylangan.

Mamlakatimizda milliy genofondni mustahkamlash, yosh avlodni yetuk kadrlar etib tarbiyalash masalalariga doimiy e'tibor qaratib kelingan, jumladan, 2017-yil 16 - avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda ta'lim tizimini rivojlantirishning ko'plab yo'nalishlari belgilab berildi. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur tashkilotlarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yilgan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonihamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratildi. Shuningdek, 107 ta maktabgacha ta'lim muassasasi rekonstruksiya qilindi va qurildi, 195 ta bog'cha kapital ta'mirlandi.

Farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi katta o'rni va ahamiyatini e'tiborga olib, Maktabgacha ta'lim vazirligini tashkil etdik. Biz ushbu sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashimiz, jumladan, yaqin 3-4 yilda barcha hududlarda minglab yangi bog'chalar qurishimiz, ta'lim-tarbiya sifati va darajasini yangi bosqichga ko'tarishimiz lozim deb takidlaydi muhtaram prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev1 .

Albatta, mazkur masalaga e'tibor kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgani yo'q. Ortga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'tgan 28 yillik mustaqillik davrida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimizda ta'limni tubdan isloh qilishning muhim bosqichlari amalga oshirilib, mohiyatan hech qaysi bir davlatda mavjud bo'lmagan uzluksiz ta'lim tizimi shakllantirildi. Ya'ni yosh avlodning maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan to oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz bilim olishlari, kasb o'rganishi uchun shartsharoitlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. "Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimi haqida

gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to'g'ri keladi: 'ta'lim-tarbiya – biz uchun hayot-mamot masalasidir', - deb doimo ta'kidlaydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Prezidentimizning xalqqa qilgan murojatnomasida aytib o'tgan muhim gapini keltirib o'tmoqchiman. Murojatnomada jumladan shunday deyiladi. Maktab tizimida o'qituvchi degan nomni qadrini ko'tarish uchun uning ma'naviy va moddiy ta'minotini oshirish buning uchun esa ularga to'lanadigan oylik ish haqini oshirish, xususan, bir tumandan boshqa tumanga borib ishlaydigan o'qituvchi xodimlar uchun ularga oylik ish haqining 50% hisobida, boshqa viloyatga borib ishlasa 100% miqdorida ustama haqlari belgilanishi murojatnomada Prezidentimiz tomonidan ta'kidlab o'tildi. Maqolam so'ngida shuni misol qilib keltirmoqchimanki ilm o'rgangan kishi hech qachon yutqazmagan yutqazmaydi ham. Zero, xalqini, jonajon vatanini, mehribon Ota-onasini yaxshi ko'rgan, ardoqlagan inson aslo ertangi kelajagi uchun qayg'urmay qolmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ҳайдаров Сулаймон Амиркулович. (2020). Тарих фанини ўқитишга оид экологик муаммолар масаласи «Scientific Progress» Scientific journal 1(1). 12-17.
2. Сулаймон Амиркулович Ҳайдаров. (2020). Тарих дарсларида интеграциялашган технологиялардан фойдаланиш. Science and Education. 1(8). 666-671
3. С.А. Ҳайдаров. (2020). Ўзбекистон тарихини ўқитишда “Зафарнома”дан фойдаланишни имкониятлари. Science and Education. 1(7). 192-198
4. Ergashev Sh. Ta'lim tizimidagi islohotlar buyuk yangilanishlar poydevoridir. “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati» DUK.17-yanvar, 2024-yil.
5. Ismailova Shaxnoza. Mustaqillik yillarida mustaqillik yillarida maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlar, muammolar va yechimlar. International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education. June 5th 2022